

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.S.Shodiyeva</b>	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini .....	424
<b>M.G'.Ismoilov</b>	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
<b>N.X.Raxmankulova</b>	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati .....	433
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-siyosiy qasamlar .....	439
<b>A.A.Hakimov</b>	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi .....	444
<b>Sh.T.Abbosova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati .....	448
<b>A.A.Parmonov</b>	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
<b>S.M.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	456
<b>S.M.Ro'zimurodov</b>	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
<b>M.A.Мирзарахимов</b>	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
<b>Z.H.Ubaydullayeva</b>	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili .....	467
<b>J.Xamroqulov</b>	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
<b>N.O.Yunusaliyeva</b>	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
<b>N.I.Suleymanova</b>	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati .....	481
<b>Y.V.Lutfullina</b>	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
<b>J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob</b>	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish .....	490
<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida .....	497
<b>S.A.Sharipova</b>	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
<b>K.I.Марайимова</b>	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
<b>B.B.Djalalov, K.P.Uzakov</b>	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida .....	512
<b>M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov</b>	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $\text{InBr}_3/\text{Et}_3\text{N}/\text{Et}_2\text{O}$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

## RASMIY-SIYOSIY QASAMLAR

## ОФИЦИАЛЬНЫЕ ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРИСЯГИ

## FORMAL POLITICAL OATHS

Saminjonov Muxammadali<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti ingliz tili kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada sohaviy qasamyodlarning shu uslubdagi qasamyodlar uchun umumiy tomonini o'rganishda qasamyod matnining shakliy-kompozitsion tuzilishi o'ziga xos o'rin tutishi, sohaviy qasamyod sirasiga kiradigan lavozim qasamyodining matniy tuzilishi monologik shaklda bo'lib, so'zlovchi uni og'zaki va yozma tarzda bayon qilinishi, uning matniy kompozitsion tuzilishi uch bosqichli bo'ladi. Uch bosqichli matn monologik ko'rinishda mikromati hajmida bo'lib, uning birinchi bosqichi, ya'ni shakllantiruvchi qismi gapning modusi hisoblanadi. Unda adresant ko'rsatkichi/men olmoshi orqali ifodalanadi, ushbu olmoshdan so'ng so'zlovchi ismi-sharifini to'liq keltiradi, swear by Almighty God jumlasida esa so'zlovchi nutqida e'tiqodni ko'rsatuvchi maxsus e'tiqodiy indikator hisoblanishi borasida fikrlar bayon etilgan.

**Аннотация**

В статье структурно-композиционная структура текста присяги занимает особое место при изучении общего аспекта полевых присяг, для клятв этого стиля — текстовой структуры вступительной присяги, которая является частью полевой присяги, имеет монологическую форму, и говорящий произносит ее устно, а для письменного выражения ее текстово-композиционная структура будет трехуровневой. Трехступенчатый текст монологичен размером с микромат, а его первая ступень, т. е. образительная часть, является модусом предложения. В нем адресат выражается через местоимение/я, после этого местоимения указывается полное имя говорящего, а предложение, клянусь Всевышним Богом, считается особым показателем веры, показывающим веру в речь говорящего. выразился.

**Abstract**

In the article, the structural and compositional structure of the oath text takes a special place in the study of the general aspect of the oaths of the field, for the oaths of this style, the textual structure of the oath of office, which is part of the field oath, is in a monologic form, and the speaker speaks it orally and to be expressed in writing, its textual compositional structure will be three-level. The three-stage text is monologic in the size of a micromatte, and its first stage, that is, the formative part, is the mode of the sentence. In it, the addressee is expressed through the pronoun/I, after this pronoun, the full name of the speaker is given, and the sentence swear by Almighty God is considered a special faith indicator that shows the belief in the speaker's speech. opinions are expressed.

**Kalit so'zlar:** soha, qasam, nutq, e'tiqod, indikator, olmosh, bosqich, so'z, yozma, og'zaki, lavozim, matn.

**Ключевые слова:** поле, клятва, речь, убеждение, показатель, местоимение, этап, слово, письменное, устное, положение, текст.

**Key words:** field, oath, speech, belief, indicator, pronoun, stage, word, written, oral, position, text.

**KIRISH**

Ingliz tilida qasamyod matnlarining "Oath of office" va "Oath of Allegiance" singari sohaviy qasamyodda oid matnlari, "Coronation Oath", "Oath of due Obedience" va "Marriage vow" kabi diniy qasamyod matnlari, shuningdek, so'zlashuv uslubiga oid qasamyod matnlari keng tarqalgan.

Ingliz lingvomadaniyatida sohaviy qasamyodlar mazmuni, asosan, rasmiy va'da tarzida bo'ladi. Lavozim qasamyodi "Oath of Office" deb nomlanib, odatda, davlat hokimiyati hamda diniy tashkilotlarda lavozim yoki muayyan vazifani bajarishdan oldin qabul qilinadigan qasamyod turidir. Bunday qasamyodlar ko'pincha Birlashgan Qirollik hududidagi davlat va diniy idoralar, tashkilotlarda faoliyat boshlayotgan har qanday shaxsdan talab qilinadi. Sohaviy qasamyodning yana bir turi sodiqlik haqidagi qasamyod, ya'ni The Oath of Allegiance bo'lib, uning mazmunida Birlashgan Qirollikdagi davlat xizmatchilari va fuqarolikka yangi qabul qilinayotganlar tomonidan Britaniya monarxiyasi, uning merosxo'rlari va vorislariga sodiq bo'lishga va'da berish mavjud.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ingliz lingvomadaniyatidagi sohaviy qasamyodlarning o'ziga xosligi shundaki, bunday qasamyod tantanali qabul qilinishi bilan birga "Solemn Affirmation", ya'ni qasamyod tantanali tasdiqlanadi ham. Bunday ijro so'zlovchiga o'z xohishiga mos keladigan shaklni tanlash imkonini beradi. Ushbu tantanali tasdiqlash Birlashgan Qirollik tomonidan talab qilingan so'zlovchining o'z sodiqligini ifodalovchi shakl sifatida qasamyodni qabul qilish bilan tenglashtiriladi. Ingliz tilidagi

huquqshunoslikka oid lug'atlarda "affirmation" so'zi sud zalida haqiqatni aytish uchun talab qilinuvchi, lekin qasamyod bo'lmagan shakl (statement in court that you will say the truth, though this is not sworn an oath[1]) bo'lib, Birlashgan Qirollikda Parlament a'zolarining diniy va boshqa sabablarga ko'ra qasam ichishni xohlamaganda Qirollichaga o'z sodiqligini ko'rsatuvchi shakl (statement by an MP, showing his allegiance to the Queen (when he does not wish to take the Oath of Alligiance on religious or other grounds[2]) kabi ma'nolarni anglatadi. Aslida qasamyodning bu shakli tarixan ingliz deputati Charlz Bredlou nomi bilan bog'liq. U 1880-yilda Nortgemptonda parlament saylovida ateist sifatida o'z sodiqligini "affirmation", ya'ni tasdiqlash shaklida bayon qilish huquqini berish talabi bilan chiqqan. Natijada o'z vakolatlari tugatilib, politsiyachilar tomonidan kuch bilan majburan haydab yuborilgan. Keyinchalik uning bu talabi qondirilgan va uch marta qayta saylanganda o'z sodiqligini shu yo'sinda bildirgan.

Ingliz lingvomadaniyatida sohaviy qasamyod marosimida qasamyod qildiruvchi shaxs tushunchasi bor. Bunda "offitser" deb chaqiriluvchi mas'ul shaxs o'z vazifasiga ko'ra qasamyod qabul qiluvchiga qasamyod qabul qildirish, qasamyod matnini aytib turish, qasamyodga imzo qo'ydirish kabi vazifalarni bajaradi.

Sohaviy qasamyodlar ritual xususiyati bilan ham alohida ahamiyatga ega. Ular monologik-individual yoki monologik-jamoaviy tarzda ijro etiladi. Monologik jamoaviy tarzda ijro etilishi fuqarolik qasamyodlari namunalarida yaqqol ko'rinadi.

Sohaviy qasamyodlarning shu uslubdagi qasamyodlar uchun umumiy tomonini o'rganishda qasamyod matnining shakliy-kompozitsion tuzilishi o'ziga xos o'rin tutadi. Sohaviy qasamyod sirasiga kiradigan lavozim qasamyodining matniy tuzilishi monologik shaklda bo'lib, so'zlovchi uni og'zaki va yozma tarzda bayon qiladi. Uning matniy kompozitsion tuzilishi uch bosqichli bo'ladi. Uch bosqichli matn monologik ko'rinishda mikromati hajmida bo'lib, uning birinchi bosqichi, ya'ni shakllantiruvchi qismi gapning modusi hisoblanadi. Unda adresant ko'rsatkichi/men olmoshi orqali ifodalanadi, ushbu olmoshdan so'ng so'zlovchi ismi-sharifini to'liq keltiradi, *swear by Almighty God* jumlasida esa so'zlovchi nutqida e'tiqodni ko'rsatuvchi maxsus e'tiqodiy indikator hisoblanadi.

Ikkinchi, ya'ni rivojlantiruvchi bosqich gapning diktum qismiga to'g'ri keladi va unda, asosan, adresant uchun kelajakda muayyan vazifaning belgilanishi yoritiladi. Ushbu bosqichda ikki muhim jihat bor. Birinchisi — bevosita matniy adresatlar, ikkinchisi esa so'zlovchining shu ondan e'tiboran faoliyatini qayerda davom ettirishi va o'z lavozimiga kirishayotganligiga ishora.

Uchinchi, ya'ni tugallanma bosqichi sohaviy qasamyodning yakunlanayotganidan darak beradi. Bunda adresant u yoki bu ko'rinishdagi yakunlovchi gapni aytadi. Masalan, ushbu matnda *So help me God* gapining kiritilishi bilan lavozim qasamyodi o'z yakunini topadi. Shuni aytish kerakki, ushbu tugallanma bosqichda ishtirok etuvchi *So help me God* jumlasida rasmiy qasamyodlarning e'tiqodiy indikatorini sanaladi. Aslida, bu qism modus qismning mazmuniy davomidir.

Ingliz sohaviy qasamyodlarining yana bir o'ziga xosligi shuki, ayrim qasamyodlar, jumladan, sodiqlik haqidagi qasamyod matni ikki ko'rinishda bo'ladi.

1-ko'rinish:

I bosqich: shakllantiruvchi: I...swear by Almighty God

II bosqich: rivojlantiruvchi: that I will be faithful and bear Irie allegiance to Her Majesty Queen Elizabeth II, her heirs and successors, according to law.

III bosqich: yakunlovchi: So help me God 12

2-ko'rinish:

I bosqich: shakllantiruvchi: 1... do solemnly, sincerely and truly declare and affirm

II bosqich: rivojlantiruvchi: that I will be faithful and bear true allegiance to Her Majesty Queen Elizabeth II, her heirs and successors, according to law.

III bosqich: yakunlovchi: mavjud emas.

Sodiqlik haqidagi qasamyod matni boshqa qasamyodlar kabi uch bosqichli qasamyod bo'lib, birinchi shakllantiruvchi bosqich talabiga ko'ra I — men olmoshi bilan boshlanadi, men olmoshdan keyin so'zlovchining ismi- familiyasi keltiriladi. So'zlovchining diniy e'tiqodiga ko'ra (swear by Almighty God yoki e'tiqodsiz so'zlovchi, ya'ni diniy e'tiqodi mavjud bo'lmagan shaxs nuqtayi nazaridan do solemnly, sincerely and truly declare and affirm of Allege[3].) Maxsus shakllar

tanlanadi. Har ikki ko'rinisdagi qasamyodda ikkinchi rivojlantiruvchi bosqichda diktum mazmuni o'zgarmaydi. Lekin uchinchi bosqichda biroz semantik jihatdan farqlar kuzatiladi. Birinchi ko'rinishda *So help me God* gapi yakuniy bosqichni ifodalasa-da, ikkinchi ko'rinishda bunday gap mavjud emas.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ingliz tilida sohaviy qasamyod namunalarning matniy kompozitsion tuzilishi semantik jihatdan rasmiy va'dani anglatib, mikromatn shaklida bo'ladi. Ushbu lingvomadaniyatda sohaviy qasamyodlar og'zaki ijro etiladi va uning yozma shakliga imzo qo'yish bilan yakunlanadi. Matniy tuzilishi monologik matn ko'rinishida bo'lib, rasmiy uslubda ifodalanadi. Matniy kompozitsion tuzilishida uch bosqich: shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, yakuniy qism elementlari (leksik-semantik, grammatik ko'rsatkichlari) mavjud. Matnning kirish, ya'ni shakllantiruvchi qismi so'zlovchi ismi-sharifining to'liq ko'rsatilishi va modusning mavjudligi bilan harakterlanadi. Rivojlantiruvchi bosqichda esa, odatdagidek, diktum qismning ishtiroki, yakuniy, ya'ni tugallanma bosqichda diniy e'tiqodiga qarab, yakuniylikni ifodalovchi *So help me God* jumlasini keltiriladi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida bu bosqichda matnning diniy e'tiqodiy indikatorlari mavjud.

Ingliz tilida sohaviy qasamyod namunasi sifatida "Oath of Office", "Oath of Allegiance" qasamyodlari matnning shakliy-kompozitsion tahlili quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi:

1. Sohaviy qasamyod mazmunan rasmiy va'da mazmunida bo'ladi, shakli va mazmuni jihatdan tugal, yaxlit kichik hajmdagi matndir.
2. Monologik shaklda bir butun mikromatn sifatida namoyon bo'ladi.
3. Sohaviy qasamyodda marosimiylik (rituallik) xususiyatlari mavjud.
4. Matn rasmiy uslubda, og'zaki va yozma shaklda bo'ladi.
5. Sohaviy qasamyod matni uch bosqich, ya'ni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va tugallanma bosqichlardan iborat.

6. Sohaviy qasamyod mikromatni tarkibida mazmunan adresantning majburiyat olishi, adresant va adresat uchun muhim bo'lgan e'tiqod ko'rsatkichi vazifasidagi so'zlar bo'ladi. ("Coronation Oath", "Oath of due Obedience", "Marriage vow" misolida)

Ingliz lingvomadaniyatida diniy uslubga xos an'analar asosida qabul qilinadigan rasmiy diniy qasamyod turlari mavjud. Rasmiy-diniy qasamyodlar mazmuni, asosan, rasmiy diniy va'da va ahdni anglatadi. Qirolichaning davlat boshqaruviga rasmiy kirishishi mazmunini anglatuvchi "Coronation Oath", ya'ni toj qasamyodi mazmunan rasmiy va'dadir. Bu qasamyod turi marosimiylik xususiyatlariga ko'ra sof diniy-rasmiy uslubda ijro etilishi bilan harakterlanadi. Diniy qasamyodning "Oath of due Obedience" turi esa ingliz cherkovida o'tkaziluvchi, shu bilan birga, mohiyatida cherkov ma'muriyatidagi lavozimga kirishishni anglatuvchi qasamyoddir. "Marriage vow", ya'ni nikoh qasamyodi diniy uslubda ifodalanuvchi ikki so'zlovchilarning bir-biriga bergan rasmiy va'da va ahdi uyg'unlashuvini anglatuvchi qasamyod turi sanaladi. Ingliz lingvomadaniyatida diniy qasamyod marosimida qasamyod qildiruvchi shaxs arxiyepiskop sanaladi. Diniy qasamyodlar ritual marosimiylik xususiyati bilan alohida ahamiyatga ega. Ular monologik-individual yoki dialogik-individual tarzda ijro etiladi. "Marriage vow" qasamyodi esa polilogik shaklda tashkillashtirilib, arxiyepiskop vositasida ikki so'zlovchi axlining alohida monologik-individual va diniy-rasmiy va'dasining dialogik-individual shaklda ijro etilishi bilan harakterlanadi.

Ingliz lingvomadaniyatida diniy qasamyod turlarining matniy kompozitsion tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

ingliz lingvomadaniyatidagi toj qasamyodi namunasi –

I bosqich: shakllantiruvchi: *The Archbishop of Canterbury: Madam, is your Majesty willing to take the Oath?* Ingliz tilida diniy qasamyod matni kompozitsion tuzilishini lingvistik tadqiq o'tkazish maqsadida itoatkorlik qasamyodi (Oath of due Obedience), toj qasamyodi (coronation oath), nikoh qasami (marriage vow) tanlab olingan

II bosqich: rivojlantiruvchi: *to govern the Peoples of the United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland Canada, Australia, New Zealand, the union of South Africa, Pakistan and Ceylon, and of your Possessions and the other Territories to any of them belonging or pertaining according to their respective laws and customs?*

*The Queen: I solemnly promise so to do.*

*The Archbishop: Will you to your power cause Law and Justice, in Mercy to be executed in all your judgements?*

*The Queen: I will.*

*The Archbishop: Will you to the utmost of your power maintain the Laws of God and the true profession of the Gospel? Will you to the utmost of your power maintain in the United Kingdom the Protestant Reformed Religion established by law? Will you maintain and preserve inviolably the settlement of the Church of England, and the doctrine, worship, discipline, and government thereof, as by law established in England? And will you preserve unto the Bishops and Clergy of England, and to the Churches there committed to their charge, all such rights and privileges, as by law do or shall appertain to them or any of them[4]?*

*Queen: All this I promise to do.*

III bosqich: tugallanma: *The things which I have here promised. I will perform and keep So help me God!*

Toj qasamyodi qasamyod nutqiy janrining bir turi sifatida muhim va u rasmiy-diniy uslubga xoslangan dialogik mikromatndir. Dialogik shakldagi qasamyod matni murakkab tuzilishli bo'lib, bir nechta modus va diktumlarning o'ziga xos zanjirli ketma-ketligidan iborat. Uning semantik mazmuni tantanali va'da (solemnly promise and swear), ya'ni qirolichaning (qirol) o'z xalqi oldida qabul qilgan tantanali qasamyodini anglatib, uning asosiy mazmunida mamlakatni boshqarish, o'z xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishdek qat'iy va tantanali va'da turadi. Ushbu matnning shakllantiruvchi bosqichi arxiyepiskopining murojaati qirolichaning bunga ijobiy javobi (*Madam, is your Majesty willing to take the Oah The Queen: I am willing*)dan iborat bo'ladi, ammo so'zlovchining ismi-sharifi to'liq ko'rsatilmaydi. Shakllantiruvchi bosqich gapning modus qismini (*Will you solemnly promise and swear*) aytish bilan davom etadi. Ikkinchi bosqich diktum qismning keltirilishi bilan izohlanadi.

Dialogik qasamyod matni obyektining o'zgarishi bir nechta modus va diktumlarning ketma-ket joylanishi bilan (*Will you to your power cause Law and Justice, in Mercy to be executed in all your judgements? Will you to the utmost of your power maintain the Laws of God and the true profession of the Gospel? Will you to the utmost of your power maintain in the United Kingdom the Protestant Reformed Religion established by law? Will you maintain and preserve inviolably the settlement of the Church of England, and the doctrine, worship, discipline, and government thereof, as by law established in England? And will you preserve unto the Bishops and Clergy of England, and to the Churches there committed to their charge, all such rights and privileges, as by law do or shall appertain to them or any of them?*) xarakterlanadi. Diktum qismning mazmuni so'zlovchiga muayyan vazifa va majburiyatlarning yuklatilishi, qirolichaning ushbu vazifa va majburiyatlarni bajarishga rasmiy va'da berishi bilan yakunlanadi. Ushbu bosqichda adresatlarning mavjudligi alohida ahamiyatga ega. Ushbu matnda uch toifadagi adresatlarni farqlash lozim: 1) arxiyepiskop; 2) ilohiy adresat: Xudo (God); 3) matn adresatlari: Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligi, Shimoliy Irlandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya xalqi, Janubiy Afrika Ittifoqi, Pokistondagi britaniyaliklar, Seylondagi britaniyaliklar va ingliz cherkovi xodimlari (Church of England) lardir.

Uchinchi bosqichda esa "*The things which I have here promised I will perform and keep. So help me God!*" jumlasini matnning yakuni, ya'ni tugallanma bosqichi hisoblanadi. Ingliz lingvomadaniyatida *So help me God!* jumlasini qirolicha nutqini gaplarni qasamyod darajasiga olib chiquvchi, shuningdek, diniy jihatdan tasdiqlovchi kalima bo'lib, Xudoni guvohlikka chaqirib, o'z so'zlarini tasdiqlash, agar yolg'on guvohlik yoki va'da berilsa, uning o'zi ajrim qilishi va yolg'on guvohlikning qasoskori ham o'zi bo'lishligini so'rab qilingan murojaatni anglatadi.

### XULOSA

Toj qasamyodining dialogik shaklda ekanligi ushbu xalq ongida diniy kayfiyatni uyg'otadi, chunki dialogik savol-javob tarzidagi qasamyodlar ingliz lingvomadaniyatida ma'lum ma'noda "sirlilik"ni ko'rsatadi. Demak, bunda dialogik qasamyodni qasamyod nutqiy janrining diniy-falsafiy jihatlariga ishora deb qabul qilish lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Cronin, A.J. Hatter's castle. [https://www.goodreads.com/book/show/634757.Hatter\\_s\\_Castle](https://www.goodreads.com/book/show/634757.Hatter_s_Castle)
3. Ойбек. Қўтлуғ қон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 263.
4. Dreiser Th. The Financier. <https://academic.oup.com/ywes/article-abstract/49/1/435/1661626?redirected>.
5. Тоҳир Малик. Шайтанат. 3 китоб. – Тошкент: Шарқ, 2019. –Б.372

6. Achebe. Ch. Civil peace, 150.
7. Ҳотамов А. Эрка қизнинг қисмати. – Тошкент, 2005. – Б.
8. Shakespeare V. The Story of Hamlet, 20.
9. Исмоилов Н. Омонат ғор сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 105.
10. Саид Равшан. Тунги чинқириқ. Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 64.
11. Ҳошимов. Н. Эр либосли аёл. – Тошкент, 2009. –Б. 83.
12. Dreiser Th. Sister Carrie, 168.
13. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 251.
14. London J. Short stories, 41.
15. Исмоилов Н. Бургут тоғда улғаяди. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 282.
16. Myths and legends, 63.
17. Saminjonov Muhammadali Salimjon o'g'li. – TILSHUNOSLIKDA NUTQIY JANRLAR VA SOHA QASAMLARI MASALASI FarDU. ILMIY XABARLAR 1-2023; 355-358.
18. Saminjonov Muhammadali — [MANAGEMENT STYLE AND LEADERSHIP ISSUES](#) Conference Zone 2021/11/30, P 61-62
19. Saminjonov Mukhammadali — [OATHS CLASSIFICATION. OATHS OF THE FIELD](#) The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2023/10/24, Volume 5, Issue 10, P 31-37
20. Muhammadali Saminjonov — [TILSHUNOSLIKDA NUTQIY JANRLAR VA SOHA QASAMLARI MASALASI](#), Scientific journal of the Fergana State University, 2023/6/22, Issue 1, P 93-93
21. Muhammadali Saminjonov — [ВОПРОС О РЕЧЕВЫХ ЖАНРАХ И ОТРАСЛЕВЫХ КЛЯТВАХ В ЛИНГВИСТИКЕ](#), Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023/2/25, Issue 1, P 450-453
22. Saminjonov Mukhammadali — [A SYSTEMATIC STUDY OF FIELD OATHS IN DIFFERENT LINGUISTIC-CULTURAL ENVIRONMENTS](#), American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2022/10/13, Volume 9, P 178-182
23. Saminjonov Muhammadali FarSU — [Analysis of Origins of Idioms in English and their Alternatives in Uzbek](#), Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), Volume 12, Issue 13, P 6391-6396
24. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари Асқарова Шахноза Камолидиновна-2019 <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/48069>
25. К вопросу преподавания английского языка как языка специальности на юридических факультетах высших учебных заведений (М.А. Голубцова, журнал "Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА)", N 11, ноябрь 2018 г.) <http://ivo.garant.ru/#/document/77523433>
26. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи Хасанова Фотимахон Мамановна-2019 <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/47911>
27. Нурмонова С. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. Фил.ф б-ча фалсафа доктори (PhD)... дисс. –Андижон, 2022.
28. [https://en.wikipedia.org/wiki/onth\\_of\\_Allsiance\\_\(United\\_Kingdom\)](https://en.wikipedia.org/wiki/onth_of_Allsiance_(United_Kingdom))
29. The Evolution and Contemporary Relevance of the Accession and Coronation Oaths of the United Kingdom <https://doi.org/10.1111/j.1467-856X.2011.00459.x>
30. К вопросу преподавания английского языка как языка специальности на юридических факультетах высших учебных заведений (М.А. Голубцова, журнал "Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА)", N 11, ноябрь 2018 г.) <http://ivo.garant.ru/#/document/77523433>